

**QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 3-soni)**



FILOLOGIYA

PHILOLOGY

UO‘K:891.709575-141

ORCID:0009-0000-0679-0590

HOZIRGI NUROTA ADABIYOTIDA AN’ANA VA NOVATORLIK

Rajabov Faxriddin Toshpo’lotovich

f.f.f.d. (PhD)

Navoiy innovatsiyalar universiteti

faxriddin1818@mail.ru

Annotatsiya. Muayyan hududdagi ijodkorlik masalasini o‘rganish, o‘sha hudud adabiyotiga xos xususiyatlarni tahlil qilish aynan, Nurota hududidagi shoir-u yozuvchilarini o‘rganishning bir zarurati mavjud. U ham bo‘lsa, globallashuv davrida, turli adabiy va madaniy muhitlar orasidagi chegaralar buzilayotgan yoki yo‘qolib borayotgan bir davrda xalqlar va millatlarning qiyofasi, o‘ziga xos rasm-rusumlari hamda ijodkorligini saqlab qolishga va matnda muhrlashga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Nurotalik shoir va yozuvchilarining asarlarini to‘plash va ularning badiiyatiga xos xususiyatlari haqida mulohaza yuritish, yaratilgan adabiyotning an’anaviy adabiyot bilan aloqasi masalasiga doir fikrlarni o‘rganish muhim. Shu nuqtayi nazardan ushbu maqolada nurotalik adiblarning yaratgan asarlarida an’anaviy adabiyotdan qay darajada oziqlanganligini va uning o‘qimishliligini ta’minlaydigan omil nima ekanligini bilish shunga bog‘liq holda yangi fikr va qarshlarning adabiyotda ifodalananish masalasini o‘rganish haqida so‘z boradi.

Tayanch so‘zlar: An’anaviylik, novatorlik, badiiy ijodkorlik, adabiy muhit, hududiy ijodkorlik, adabiyot tarixi, she’r, asar, tarixiy asar

ВОПРОСЫ НОВАТОРСТВА И ТРАДИЦИИ В СОВРЕМЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ НУРАТИНСКОГО РАЙОНА

Аннотация. Необходимо изучить проблему творчества в конкретном регионе, проанализировать особенности литературы этого региона, изучить поэтов и писателей Нурагинского региона. Однако в эпоху глобализации, когда границы между различными литературными и культурными средами стираются или исчезают, возрастаёт потребность сохранить и запечатлеть в тексте образ, уникальные образы, творчество народов и наций. Важно собирать произведения нурагинских поэтов и писателей, размышлять об особенностях их творчества, изучать идеи о связи созданной ими литературы с традиционной литературой. С этой точки зрения в данной статье

рассматривается изучение выражения новых идей и возражений в литературе, чтобы понять, в какой степени творчество нуратинских писателей питается традиционной литературой и какие факторы обеспечивают ее грамотность.

Ключевые слова: традиционализм, новаторство, художественное творчество, литературная среда, территориальное творчество, история литературы, поэзия, произведение, историческое произведение.

TRADITION AND INNOVATION IN MODERN NUROTA LITERATURE

Abstract. There is a need to study the issue of creativity in a particular region, to analyze the characteristics of the literature of that region, namely, to study the poets and writers of the Nurota region. Moreover, in the era of globalization, when the boundaries between different literary and cultural environments are being destroyed or disappearing, the need to preserve the image of peoples and nations, their unique images and creativity, and to imprint them in the text is increasing. It is important to collect the works of poets and writers of Nurota and reflect on the characteristics of their art, to study the ideas on the relationship of the created literature with traditional literature. From this point of view, this article deals with the study of the issue of the expression of new ideas and objections in literature, to find out to what extent the works of Nurota writers were nourished by traditional literature and what is the factor that ensures its literacy.

Keywords: Traditionalism, innovation, artistic creativity, literary environment, regional creativity, literary history, poem, work, historical work

KIRISH. An’anaviylik va navotorlik masalasida adabiyotlarda fikrlar yuritilgan. Adabiyotshunoslikda an’anaviylik va novatorlik o‘zaro bog‘liq, bir-birini taqozo qiladigan va bir-birini to‘ldiradigan adabiy tushunchalar sifatida ifodalanadi.

Ijtimoiy taraqqiyotning barcha yo‘nalish va tarmoqlarida taraqqiyot bo‘ladi. Ana shu taraqqiyot doimo bog‘liqlikda ish ko‘radi unda davomiylik, an’anaviylik bo‘ladi. Adabiy taraqqiyotdagi har bir yangi, ulkan hodisa ham o‘tmishdagi eng yaxshi an’analarning ijodiy davom ettirilishi natijasida yuzaga keladi. Adabiy jarayondagi g‘oyaviy an’anaviylik muhim xususiyat bo‘lib, asardagi yetuk g‘oyalarning davr va zamonga yoki yangi sharoitga o‘zgartirilgan, chuqurlashtirilgan hamda to‘ldirilgan holda yangicha ifodalanishidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Novatorlik esa an’anaviylik elementlarini xususiy va umumiyligi jihatlarini yanada rivojlanishi va takomillashgan shaklini ifodalashga xizmat qiladi. Tadqiqotchining fikricha, “Novatorlik, birinchidan, tarixiy taraqqiyotning yangi bosqichi bo‘lgan hozirgi davrda ro‘y berayotgan voqealarni chuqur tushunish, hayotiy jarayonning eng qaynoq jahbalarini badiiy idrok etish, ikkinchidan, yetakchi qahramonlar obrazi orqali tasvir etilayotgan davrni yorqin va haqqoniy aks ettirish, uchinchidan, inson xarakteri va ruhiy dunyosini chuqur ochib berish va, nihoyat, davrning muhim ijtimoiy va ma’naviy muammolarini dadil ko‘tarib chiqish yo‘li bilan namoyon bo‘ladi.

Bular, birinchi navbatda, shaklga emas, mazmunga oid masalalardir”[1]. Novatorlik murakkab ijodiy jarayonda tarkib topib va namoyon bo‘lib boradi. Uning shakllanishi va rivojlanishi esa, birinchi navbatda, yangi voqeylek va yangi qahramonlarni, inson xarakterlarini badiiy kashf etish tamoyilining kuchayib borishida, ayni vaqtda, yangi mazmunga muvofiq keladigan yangi badiiy shakllarning vujudga kelishida, ular rang-barangligining oshishida, yangi badiiy vositalarning kashf etib borilishida namoyon bo‘ladi. Nurota adabiy muhiti ijodkorlari tomonidan yaratilgan asarlarda ham albatta an’anaviylik va novatorlik xususiyatlarini o‘zida mujassam etish xususiyatini ko‘rish mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Nurota tarixiga oid asarlar

Barcha ijodkorlarda bo‘lgani kabi yoki idividual ijodkorlarning barchasida kuzatish mumkin bo‘lgan an’anaviylik bu Vatan mavzusida asarlarning yaratilganligi.

Har bir hududning o‘ziga xos tarixi va madaniyati, urf-odat va an’analari mavjud bo‘ladi. Ayniqsa, uzoq tarixga ega bo‘lgan avliyo zotlar xoki mangu qo‘nim topgan, Ollohnning nazari tushgan bo‘lsa yanada e’tiborli maskan ekanligi bilan ulug‘lanadi. Nurota ana shunday muqaddas manzillardan ekanligi asrlar mobaynida e’tirof etib kelinadi. Muqaddaslik kasb etishini qator sabablarini keltirish mumkin. Avvalo Nurotaning shifobaxsh chashma suvi va unga nur yog‘ilishi²⁴⁸, “Chashma” majmuasi sahnidagi ulug‘ mashoyix Shayx Abul Hasan Muhammad ibn Muhammad ibn Muhammad an-Nuriy²⁴⁹(Bu zot haqida Buxoro tarixchisi Narshaxiyning “Buxoro tarixi”, A.Jomiyning “Nafohatul-uns min hazoratul quds” (Pok zotlar tomonidan esgan do’stlik shabadalari), Fariddidin Attorning “Tazkirat ul-avliyo” asarlarida avliyolik sifatlari haqida ma’lumotlar keltirilgan)ning qabrlari mavjudligi, Nurota va uning sarhadidagi muqaddas manzil va ziyoratgohlarning borligidir. Ishimizning avvalida bir qancha tarixiy manbalarda Nurota tarixi va u bilan bog‘liq afsona va rivoyatlar haqidagi ma’lumotlarni ta’kidlagan edik. Lekin ular qisqa satrlarda berilganligi sababli batafsil bayonlar keltirilmagan yoki kengroq ma’lumot olish imkonini bermaydi. Shu sababli Nurota tarixi va uning qadamjolari haqida mazmunan go‘zal asarlar yaratilgan.

Nurota tarixi korizlari, geografik joylashuvi, an’ana va qadriyatları, muqaddasligi, Nurota aholisining kelib chiqishi(etnografiyasi) haqida qator kitoblar nashr qilingan. Asarlarni yozishda, ma’lumotlarni to‘g‘ri va aniq qo‘llanganligi Nurota haqidagi tasavvurlarimizni yanada kengaytiradi va u haqidagi bilmlarimizni yanada boyitishga yordam beradi.

²⁴⁸ Чашма улуг иноят, у илохий Нурга ошуфта макон. Бунинг жонли исботи 2004 йилнинг май-июнь ойларида яна тақрорланди. Чашмадан кўқдан нур тўқилишига ва ундан нур таралишига минглаб кишилар гувоҳ бўлишди. Бу ҳол эрталаб бомдод номозидан кейин содир бўлган. Одамлар шу мўжизани ўз кўзлари билан кузатган. Айни ҳолат телеканаллар орқали тўғридан-тўғри эфирга узатилган.

²⁴⁹Шайх Абул Ҳасан Нурий IX асрда Нурда яшаган ва фаолият кўрсатган машхур диний арбобидир. У ислом таълимотини Нурда тарғиб этган, ҳалқ орасида исломий фикр юргизган, ягона Аллоҳга итоат этмаклик тўғрисида тарбия берган дастлабки руҳонийдир. Шай Абул Ҳасан ҳар томонлама маҳаллий ҳалқ хурматини қозонгандигидан ўзининг олий даражадаги оламни билиш тўғрисидаги исломий билими ва ниҳоятда хоксор, камтаринлиги билан бошқаларга ибрат бўлганлигидан, Нур ҳалки бу азиз инсонни ўзи учун муқаддас бўлган жойга-Нур чашмаси сохилига дағн этган, қабрини обод қилган ва уни зиёрат килиб, эслашни савоб иш деб ҳисоблаган.

Nurota haqida S.Mustafoyev[2], S.Umrzoqov, O. Umrzoqov[3], B.Mirzayev, K.Ahmatqulov[4], R. Axmedov[5], Shavkat Ismoilzoda[6], R. Asatov[7], I. Bobonazarov[8], S. Bo‘ldiyeva[9], X. Qurbonov[10] kabilarning asarlarida T.Salimov[11], A.Turobov[12], A.Tog‘ayev[13], X.Qo‘ng‘irov[14], F.Tolibov[15], G.Yo‘ldosheva[16], O‘.Oripov[17] tadqiqotlarida yoritilgan. Ularning ba’zilarini qisqacha mazmuni bilan quyida tanishamiz.

Nurota tarixi va unga bog‘liq bo‘lgan kitoblar bir-biridan qiziqarli va mazmunliligi bilan farq qiladi. Yozuvchining mahorati shundaki, tarixiy voqeylekni Nurota taqdirida muhim amaliy ahamiyatga ega ekanligini dalillar asosida ko‘rsata olishidadir. Bizningcha, Nurota haqida kitob yozgan yozuvchi buning uddasidan chiqqan.

Suyundik Mustafo Nurotoiy “Tabarruk nurli Nurota” kitobida Nurotaning ziyyarat etib kelinadigan qadim manzillardan biri ekanligi, Nur shahri bu sharafga qanday tuyassar bo‘lgan? Buning sababi nimada? Muqaddaslik, tabarruklik tushunchalari nimani anglatadi aslida? Shuningdek, Nurota sarhadidagi ziyyaratgohlar, Nurota haqidagi nodir manbalar, Nurota haqidagi afsona va haqiqatlar, Shayx Abul Hasan an-Nuriyning tarixi bayoni o‘z ifodasini topgan.

Tarixchi-o‘lkashunoslardan Rustam Axmedov va Shavkat Ismoilzodalarning “Sudurbobo va Nurota tarixi” asarida Nurota tarixini adabiyot tarixidagi mavjud manbalar va ularda ifodalangan fikrlar orqali muqaddasligi asoslangan. Shuningdek, Nurota taqdirida Sudurboboning siyosiy faoliyati xususida so‘z yuritilgan.

Umuman olganda har bir hududning tarixi va muqaddas manzil ekanligi yozuvchilar tomonidan albatta qalamga olinib e’tirof etiladi. Bu xususiyat an’anaviylik tamoyilini o‘zida aks ettiradi. Tarixiy asarlardagi eng qimmatli ma’lumotlar va manbalar bilan asarlarning yoritilishi novatorlik xususiyatini o‘zida mujassam etadi. Yuqorida nomlari keltirib o‘tilgan yozuvchilarimiz an’anaviylikni ham novatorlikni ham birgalikda ko‘rsata olgan.

Nurota madhiga bag‘ishlangan she’rlar

Ijodkor ahli qaysi janrda qalam tebratmasin uning qalbida otashin bir tuyg‘u hamisha barhayot va o‘zgarmas holda turadi. Uning qalbimiz qo‘ridagi eng sara inju tuyg‘u deya ta’riflaymiz. Mening nazarimda bu ta’rif yoki o‘xshatish ham yetarli emas. Tug‘ilib o‘sgan zamin har qarich yeri insonga azizu mukarramadir.

Nurotaning go‘zal tabiatini, purvuqor tog‘lari, dunyo ahlini o‘ziga jalb qilgan ziyyaratgohlari va albatta shifobaxsh chashmasi ijodkorlar tomonidan madh qilingan. Masalan, Mashrabning Nurotaga safar qilgani xususidagi, Shuhratning “Zarafshon”, Toshpo‘lat Hamid “Nurota”, Ismat Sanayev “Nurota”, Safar Umrzoqov “Nurotam”, Suyundik Mustafo Nurotoiy “O‘zga Nurota yo‘q”, “Faxriya”, Rahmon Asatov “Bu-mening Nurotam”, Zarina Ashurova “Nurotam”, Zilola Mardiyeva “Nurotam”, Sardor Salimov “Nurota madhi”, Javlon Nurqulov “Nurotam”, Shahzoda Narzullayeva “Nurota”, Manzura Mustafo qizi “Nurota”, Sa’dulla Farmonov “Nurota shahriga atalgan she’r”, Obloqul Adizov “Nurotam”, Shodigul Husenova “Nurotam chashmasi”, Xushvaqt Yusupov “Nurota”, Ergash Asaboyev “Nurota”, Eshniyoz O‘rolov “Nurota tog‘larida”, “Nurotamsan”, Gulchiroy Dilkusho “Nurota”, Farangiz

Nuriddinova “Nurota” kabi she’rlarda Nurota madh qilingan.

Yuqoridagi mualiflar tomonidan yaratilgan she’rlar o‘zining mazmuni va Nurota ta’rifini go‘zal badiiy ifodalar bilan yaratilganligi bilan o‘qimishlidir. Shuningdek, ijodkorlar Nurota haqida she’r yozar ekan uning barcha tabiiy go‘zalligi, Ollohning nuri in’om etilganligini e’tirof qilgan.

Nurotaning ta’rifi yuqorida ta’kidlaganimizdek, tarixan uzoq o‘tmishga borib taqalishi bilan birga ulug‘lar maskani ekanligi ham alohida e’tirof etiladi.

Mashrab ijodida Nurota zamini tilga olinadi. Unda shoir avliyolardan yordam so‘raydi, shuning barobarida Nur ato avliyo deya ta’riflaydi va avliyolardan yordam so‘rash mazmunida bayon keltiriladi:

*Bag‘ri qon Mardon ato, Sayyid ato er avliyo,
Sa ’dvaqqosi azizi Nur ato er avliyo,
Xoja Orif Mohi tabon Dor ato er avliyo,
Badr atovu Sadr ato, Husayn ato er avliyo,
Abu Bakru Umar, Usmon, Aliyo Sizdin madad.
Xoja O’bon, Nur ato, Hazrati Xoja Jahon,
Ham Bahoul-Haqqi vad-din G ‘avsul A ’zam dar jahon,
Man gunahkor osi qulni qo ‘l tutunglar bir zamon,
Bandayi osiy, qulung bechora yig ‘lar har zamon,
Oq atovu Ko ‘k atovu Chiltan ato Sizdin madad [18].*

Shuhratning “Zarafshon” she’rida Zarafshon vohasining ta’rifi keltiriladi. muqaddas Samarqand va Buxoro nomlari tilga olinadi shular bilan birgalikda Nurota haqida ham shunday deydi:

*Shu vodiy, shu chaman, shu go ‘zal chorbog ‘
Sen sabab — kuydirar inson ko ‘zini.
Sen sabab, Nurota — ming ko ‘zli buloq
Munavvar bog ‘larda ko ‘rar o ‘zini [19].*

Barchaga ma’lumki, Zarafshon vohasida qizilqum cho‘li yastanib yotibdi. Shoir vodiyning beqiyos go‘zalligi, uning issiq tafti sabab ko‘zlarning kuyishini ifodalansada Nurotaning ming ko‘zli bulog‘i ana shu issiq taftga go‘zallik baxsh etib turadi va muqaddasligi esa Zarafshon vohasining betakrorligini ta’kidlaydi.

Shoir Toshpo‘lat Hamid “Nurota” nomli she’rida Nurotani ta’riflar ekan, u nur ato etilgan joy ekanligi, tabiat go‘zal, purvuqor tog‘lari, jannatmisol bog‘lari, toza havosi, zilol suvlarini mahorat bilan ta’riflaydi:

*Tabiat nur ato etmish, bu yerni Nurato derlar.
Kimki ko ‘rmagan bo ‘lsa, qilibdur ul xato derlar.*

*Cho ‘zib bo ‘y tog ‘lari ko ‘kka, bu osmon ustuni go ‘yo,
Azaldan bog ‘lari jannat, bu jannat nur ziyo derlar.*

Ismat Sanayev esa “Nurota” she’rida Nurotaning tengi yo‘qligi insonning qoshi kabi yerning eng go‘zal qismi ekanligi, mo‘jizakor chashma va baliqlari shuningdek, G‘ozg‘onnining bebaho marmari haqida go‘zal tashbehlar bilan ta’riflaydi:

*Bir manzilki, ajoyib, quchog‘i keng Nurato
Izlab bo‘lmang ovora, topilmas teng, Nurato
Haybatli tizma tog‘lar moziydan so‘zlar doston
Bepoyon zamin ichra misoli meng Nurato*

Umuman olganda Nurota madhiga bag‘ishlangan she’rlarning yaratilganligi an’naviylikni ifoda etsa, yangilanayotgan davrga hamohang tarzda Nurotaning muqaddasligi va mo‘jizakor chashmasi xususidagi qarashlar ijodkorlar tomonidan mahorat bilan eng so‘nggi yangi qarashlarni o‘zida ifoda etganligi bilan novatorlik oldiga qo‘ygan maqsadni bajaradi.

Yoshlar ijodi

Nurotalik ijodkorlar orasida yosh qalamkashlar ham bor. Qo‘liga qalam olib so‘z bilan sirlashgan yoshlar ijodi o‘zining samimiyligi bilan ajralib turadi. Bolalar nigohi hayotni to‘siqlarsiz tasavvur qilishida ham ma’lum bir ma’noda erkinlik mavjud.

Dilnoza Abduhamidova “Shodlik yurti” [20], Uchqunbek Isomiddinov “Oqimdagil odamlar”[21], Chaman Jonuzoqova “Ilhom parilarin quchog‘ida yashayman”[22], Zarina Ashurova “Mening bahorim”[23], Sitora Egamberdiyeva “Lolaginam”[24], Marjona Umarova “Fasllar hikoyasi”[25], Mohinur Xayriyeva “Porlagan fonus”[26], Nafisa Ro‘zimurodova “Iftixorimsan o‘zing”[27], Muyassar Mustafoyeva “Rangin tuyg‘ular”[28], Zilola Mardiyeva “Sirli manzillar”[29], Manzura Mustafo qizi “Farishtam”[30], Sardor Jozilov “Arzon odamlar”[31] va boshqa yoshlar ijodida she’riyat va nasrning go‘zal namunalari yaratilgan. Yosh ijodkorlar o‘z ijodida vatan, ota-onaga hurmat, vatanni sevish, yaxshilik va yomonlik, do‘stlik, oqibat, tabiat tarovati, yurt jamoli, bunyodkorlik kabi mavzular etakchilik qiladi.

Dilnoza Abduhamidovaning “Shodlik yurti” kitobida bugun davlatimiz tomonidan berilayotgan imkoniyatlar, ijod erkinligi, sog‘inch tuyg‘ulari, xayolot olami tasavvurlari kabi mavzulardagi she’rlar o‘z ifodasini topgan bo‘lsa, Uchqunbek Isomiddinovning “Oqimdagil odamlar” nasriy asarida qissa, hikoya va hikmatlar orqali inson uni o‘rab olgan olamga munosabati va sadoqati, sabri, tavbasi, hayot qonunlariga bo‘ysinishi, ayriliq, do‘stlik mavzulari ifodalangan.

Chaman Jonuzoqovaning “Ilhom parilarin quchog‘ida yashayman” to‘plamida yosh qalamkashning borliq olamni kuzatishlari natijasi, shukronalik, qishloq ta’rifi ifodalangan bo‘lsa, Zarina Ashurova “Mening bahorim” kitobidagi she’rlariga hayotiylikni singdirishga, qalbi shuuri, aql-idroki, e’tiqodini mo‘tabar tuyg‘ular bilan bog‘laydi. Do‘stlik, muhabbat, vafo, mardlik kabi insoniy xislatlар go‘zal poetik ifodalar bilan to‘ldirilgan. Sitora Egamberdiyevaning “Lolaginam” to‘plamiga kirgan she’rlari o‘zining mazmuni, tasavvur va tafakkur idrokining pishiqligi, ota-onaga hurmat, vatanga sadoqat, soxta inson haqidagi o‘ylar, orzu, shukronalik mavzulari hayotiyligi bilan ifodalangani uchun kitobxonni o‘ziga jalb qiladi.

Manzura Mustafo qizi “Farishtam” to‘plamida vatan, ota-onasiga, oila muqaddasligi, ayriliq, o‘zbek tilini, bolalik kabi mavzulardagi she’rlar o‘z ifodasini topgan. Sardor Jozilov “Arzon odamlar” kitobida esa ayni zamonomizdagi odamlar qiyofasini shiddat bilan o‘zgarib borayotgan zamonga mos holda bayon qilishga harakat qilgan va lirik qahraman buning uddasidan chiqqan mening nazarimda. Yangilanishlar, sinovli dunyo, odamiylikning hamisha ustunligi, kamtarlik, xotira, bunyodkorlik, vatanni asrash, mehr-oqibat kabi mavzulardagi ijodiy mashqlari bilan o‘z kitobxonlariga ega bo‘lgan.

Umuman olganda yoshlar ijodidagi mavzular an’anaviylici bilan birga novatorlik aynan bugungi kundagi dolzab mavzularning hayotiy haqiqatlarga asoslangan holda she’riy va nasriy shaklda ifoda etilishi Nurota yoshlari ijodini ham alohida tadqiq etishga ehtiyoj mavjudligini ko‘rsatadi. Nurotalik shoir va yozuvchilar ijodidagi an’ana va novatorlik masalasi asarlar mavzu va g‘oyalarda yangi-yangi ijodiy tafakkur hosilasi sifatida vujudga keladi. An’anaviylikni saqlab qolinishi yaratilgan asarlar mazmunini yanada boyitsa novatorlik esa yangi g‘oyalalar davr muammolari va yutuqlarini aks ettirishi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun ham Nurota adiblari ijodini o‘rganish, tadqiq etish masalasi adabiyotimiz oldida turgan vazifalarning yechimi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Соатова Н. Анъанавийлик ва ворислик. (Монография). – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2019. – Б. 13.
2. Суюндиқ Мустафо Нуротоий. Табаррук нурли Нурота. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2015. – Б. 260; Миёнкол ёхуд Навоий вилояти уламолари. – Тошкент: Sano-standart, 2016. – Б. 352; Нурота зиёратгоҳлари. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2015. – Б. 72; Туронзамин азиз авлиёлари ва уламолари тазкираси. (Ҳаммуаллиф: Аблаев М). – Тошкент: Sano standart, 2015. – Б. 672.
3. Умрзоқов С. Умрзоқов О. Нурота чашмаси. – Тошкент: Фан, 2005. –Б. 32.
4. Мирзаев Б., К.Аҳматқулов. Нурота тарихидан лавҳалар. – Тошкент: 1997. – Б. 38.
5. Ахмедов Р. Судурбобо ва Нурота тарихи (ҳаммуаллиф Ш.Исмоилзода). – Тошкент, 2016. –Б. 380; Нурота нурли диёр. – Тошкент: Ўзбекистон нашриёти, 2016. –Б. 380.
6. Шавкат Исмоилзода. Нурота қиссаси.(Рисола). – Тошкент, 2005. –Б. 17.
7. Асатов Р. Ғозғоннома. – Тошкент: Наврӯз, 2003. –Б. 84.
8. Бобоназаров И. Шоҳимардан тарихи (Рисола). – Навоий, 2017. –Б. 36.
9. Бўлдиева С. Нурота. Эссе. – Тошкент: Шарқ, 2003. – Б. 256.
10. Қурбонов Х ва бошқ. Нурота тумани: Кеча ва бугун [Матн]. – Тошкент: SAHHOF, 2021. – Б. 360.
11. Салимов Т. Нурота ва нуроталиклар. Монография. – Тошкент: Университет, 2019. – Б. 158.

- 12.Турбов А.Н. Тоғ жигарранг тупроқларининг хилма-хиллигини сақловчи айрим табиий омиллар тавсифи (Чотқол ва Нурота тоғлари мисолида). Биолог. фан. ном. дисс. ... автореф. – Тошкент, 2012.
- 13.Тоғаев А. Р. Нурота воҳаси этномаданий жараёнлар (XX асрнинг I ярми). Тарих. фан. ном. дисс. ... автореф. – Тошкент, 2012.
- 14.Қўнғиров Х.Н. Нурота тоғи ва тоғ олди текисликлари тупроқлари генезиси, морфологияси, хоссалари ва улардан фойдаланиш истиқболлари. Биология. фан. ном. дисс. ... автореф. – Тошкент, 2008.
- 15.Толипов Ф.С. Нурота воҳаси аҳолиси оиласидаги турмуш тарзида жамоа анъаналари (XIX аср охири XX аср биринчи ярми) . Тарих. фан. ном. дисс. ... автореф. – Тошкент, 2007.
- 16.Юлдошева Г. К. Нурота воҳаси аёлларининг анъанавий кийим тақинчоқлари (XIX асрнинг охири XX аср бошлари). Санъатшунос. фан. ном. дисс. ... автореф. – Тошкент, 1995.
- 17.Орипов Ў.А. Нурота тумани макро ва микротопонимиясининг лисоний таҳлили. Филол. фан.ном. дисс. ... автореф. – Тошкент, 2004.
- 18.Машраб. Девон. (Тадқиқ қилувчи, қўлёзма ва босма манбалардан жамлаб нашрга тайёрловчи, лугатлар ҳамда изоҳлар муаллифи:Жалолиддин Юсуфий). – Тошкент, 2006. – Б. 388.
- 19.Шуҳрат. Танланган асарлар. Уч жилдлик. Биринчи жилд. – Тошкент, 1978. – Б. 380.
- 20.Абдуҳамирова Д. Шодлик юрти. – Тошкент, 2016. – Б. 32.
- 21.Исомиддинов У. Оқимдаги одамлар. – Тошкент, 2020. – Б. 144.
- 22.Жонузоқова Ч. Илҳом париларин кучоғида яшайман. –Т., 2009. –Б. 32.
- 23.Ашурова З. Менинг баҳорим. – Тошкент, 2017. –Б. 60.
- 24.Эгамбердиева С. Лолагинам. – Тошкент, 2017. –Б. 60.
- 25.Умарова М. Фасллар ҳикояси. – Навоий, 2018. – Б. 32.
- 26.Хайриева М. Порлаган фонус. – Навоий, 2018. – Б. 60.
- 27.Рўзимуродова Н. Ифтихоримсан ўзинг. – Тошкент, 2017. –Б. 32.
- 28.Мустафоева М. Рангин туйгулар. – Навоий, 2015. – Б. 32.
- 29.Мардиева З. Сирли манзиллар. – Навоий, 2011. – Б. 84.
- 30.Манзура Мустафо қизи. Фариштам. – Навоий, 2011. – Б. 40.
- 31.Жозилов С. Арzon одамлар. – Тошкент, 2021. – Б. 80.